



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

JAHON KORPUSLARIDA ARXITEKTURA SOHASIGA OID TERMINLARNING BERILISHIGA DOIR MUAMMOLAR

Muhayyo Mo‘ydinjonovna Qambarova

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, professor (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada jahon til korpuslarida arxitektura terminlarining berilishi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Terminlarning semantik va funksional xususiyatlari, tarjima hamda standartlashtirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, korpus lingvistikasida arxitektura terminologiyasini tizimlashtirish, ularni izchil qo‘llash va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sohaviy korpuslar yaratish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: arxitektura terminologiyasi, til korpusi, termin, semantika, kontekst, standartlashtirish, tarjima muammolari, korpus lingvistikasi, terminlar tizimi, leksik birliklar.

ПРОБЛЕМЫ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В МИРОВЫХ ЯЗЫКОВЫХ КОРПУСАХ

Мухайё Мўйдинжонова Камбарова

Ташкентский архитектурно-строительный университет, профессор (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы, связанные с представлением архитектурной терминологии в мировых языковых корпусах. Освещаются семантические и функциональные особенности терминов, а также вопросы перевода и стандартизации. Кроме того, рассматриваются вопросы систематизации архитектурной терминологии в корпусной лингвистике, их последовательного использования и разработки научных рекомендаций. Результаты исследования способствуют расширению возможностей создания предметных корпусов в данной области.

Ключевые слова: архитектурная терминология, языковые корпуса, термин, семантика, контекст, стандартизация, проблемы перевода, корпусная лингвистика, система терминов, лексические единицы

PROBLEMS OF REPRESENTING ARCHITECTURAL TERMINOLOGY IN GLOBAL LANGUAGE CORPORA

Muhayyo Mo‘ydinjonovna Qambarova

Tashkent University of Architecture and Construction, Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes the problems related to the representation of architectural terminology in world language corpora. It highlights the semantic and functional features of terms, as well as issues of translation and standardization. In addition, the study examines the systematization of architectural terminology within corpus linguistics, their consistent usage, and the development of scientific recommendations. The results of the research contribute to expanding the possibilities of creating specialized corpora in this field.

Keywords: architectural terminology, language corpora, term, semantics, context, standardization, translation issues, corpus linguistics, terminology system, lexical units.

Bugungi texnika va ilm-fan taraqqiyoti tezlashgan hamda inson tobora qulaylik va avtomatlashtirishga intilgan jamiyatda shaxslararo kommunikatsiya jarayonlari yanada murakkablashib, mukammalashib bormoqda. Kompyuterning yaratilishi va muloqotning turli shakl hamda imkoniyatlarga ega ijtimoiy tarmoqlar orasida faollashuvi kishilik jamiyati uchun katta qulayliklar yaratishi bilan birga, o‘zgarayotgan sharoitlarda inson dunyoni tabiiy qabul qilish ko‘nikmasini yo‘qotmasligi va ona tilini o‘z milliy-madaniy an‘analari doirasida saqlab qolishi zarurligini ham taqozo etmoqda.

Ijtimoiy talab, imkoniyat va taraqqiyot negizida vujudga kelgan hamda polifunksional maqsad va vazifalarga xizmat qiluvchi lingvistik kashfiyotlardan biri til korpusi yoki korporalari hisoblanadi. Til korpuslari bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot asrida tirik tillarning yashab qolishida va axborot tiliga aylanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tildan amaliy foydalanish, lingvistik

tadqiqotlarning qamrovini kengaytirish hamda tezligini oshirish, til o'qitish va tarjima bilan bog'liq bir qator masalalarda amaliy yechimlar taklif etish, leksikografiya, terminografiya, leksikologiya kabi lingvistik yo'nalishlarda olib boriladigan ishlarni avtomatlashtirish, ularning soni va sifatini oshirish singari ilm-fan hamda ijtimoiy hayot talab va ehtiyojlarini qondirishda muhim va qimmatli manba hamda vosita bo'lib xizmat qiladi [1; 25–26-b.]. Korpuslar yaratilish maqsadi, funksiyalari hamda boshqa lingvistik va nolingvistik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakl va mazmun jihatidan bir qator tasniflarga bo'linadi.

Quyida qurilish-arxitektura terminlarining aynan qaysi til korpus(lar)ida aks ettirilishi, maqsad va vazifalari, ushbu soha terminlarining korpusdagi o'rni, korpus matnlaridan soha terminlarini ajratib olish masalalari, jahon korpus lingvistikasida arxitektura-qurilish terminlariga oid sohaviy korpuslarning bugungi holati va istiqbollari, bu yo'nalish misolida terminologiyaning korpuslarda berilishi muammolari hamda unga oid taklif va tavsiyalar tavsifiy tahlil etiladi. Bunda dastavval korpus va uning turlari, qurilish-arxitektura terminlarining aynan qaysi korpuslarda berilishi maqsadga muvofiq ekanligini aniqlashtirib olish lozim [3; 40-b.].

Inglizcha korpus termini ("corpus", ko'plikda "corpora" – korpora) etimologiyasiga ko'ra lotin tiliga mansub bo'lib, "to'plam", "kolleksiya" degan ma'nolarni ifodalaydi [2; 18-b.]. Ingliz tilida bu so'z ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega bo'lib, bir muallifga tegishli matnlarni, bitta fanga oid ma'lumotlarni yoki o'rganish uchun olingan material va ma'lumotlar to'plamini nazarda tutadi. Umumiy ma'noda korpus — bu lingvistik ma'lumotlar to'plamidir. O'z navbatida, bu qurilish-arxitektura korpuslarining shu sohadagi lingvistik ma'lumotlarning til, davr, hajm va format nuqtayi nazaridan to'plangan, tartiblangan hamda lingvistik tavsiflangan bazasi ekanligini anglatadi. Shu jihatdan ushbu korpus nafaqat tilshunoslar, balki boshqa bir qator soha vakillari uchun ham birdek ahamiyatli va qadrli ekanligini ko'rsatadi. L. Bouker korpusga muayyan mezonlar asosida to'plangan elektron formatdagi autentik lingvistik materiallar to'plami degan ta'rifni beradi. Ammo L. Bouker nazarda tutayotgan mezonlar korpusdan ko'zlangan maqsad va til xususiyatlariga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega sanaladi.

Ammo har qanday turdagi korpuslar uchun umumiy bo'lgan va uni oddiy matn ma'lumotidan farqlovchi to'rtta asosiy mezon mavjud. Bunda korpus materiallari, birinchidan, autentik bo'lishi, ikkinchidan, elektron formatda bo'lishi, uchinchidan, katta hajmga ega bo'lishi va, nihoyat, korpus talabidan kelib chiqib, ma'lum talablarga javob berishi lozim [4; 12-b.].

Autentiklik. Korpusning asosiy funksiyalaridan biri muayyan jonli foydalanishda bo'lgan tilning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish va u asosida ma'lum bir tilga oid mahsulot yaratish hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishning asosiy sharti esa korpusning autentik diskurs materiallaridan tashkil topishidir. Korpus materiallarining autentik bo'lmisligi olib borilayotgan tadqiqotda til birliklarining real semantik, leksik, morfologik va morfemik xususiyatlarini ochib berishda natijaning ishonchligiga putur yetkazadi. Shuni inobatga olgan holda, qurilish-arxitektura korpusi matnlarining ham autentikligiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Elektron format. Korpus materiallarining elektron formatda bo'lishi tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida matn bilan ishlashni avtomatlashtirishga, tezlashtirishga va osonlashtirishga imkon beradi hamda ish samaradorligini oshiradi. Korpusning elektron materiallarini boyitish manbalari sifatida elektron jurnallar, maqolalar, skaner qilingan kitoblar va kundalik muloqot jarayonidagi xizmat yozishmalarini ham keltirish mumkin [5; 33–34-b.].

Hajm. Korpuslarning har biri uchun xususiylik kasb etuvchi muhim omillardan biri uning hajm jihatidan miqdori sanaladi. Garchi korpus nechta til birligi yoki so'zdan iborat bo'lishi to'g'risida turli bahs-munozaralar olib borilgan va fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, aniq yakuniy qaror mavjud emas. Zamonaviy korpus lingvistikasining boshlanish davrida korpusdagi til birliklari miqdori 500 000 dan 1 milliongacha bo'lishi yetarli hisoblangan bo'lsa, bugungi fan-texnika rivojlangan davrda zamonaviy korpuslar o'rtacha 20 million til birligini qamrab olishi normal hajm sanaladi. Til birliklarini hisoblash masalasida punktuatsion belgilar, raqamlar va boshqa matn elementlariga munosabat hamda so'zlarni hisoblashda qanday instrumentlar (tools)dan foydalanish masalasi ham munozarali hisoblanadi. Umuman olganda, korpusning hajmi undan ko'zlangan maqsad va vazifalarga qarab belgilanadi. Qurilish-arxitektura matnlarining so'z tasnifiga kirmaydigan elementlariga korpus hajmini belgilashda qanday munosabatda bo'lish masalasida ham aniq to'xtamlarga kelish lozim.

Qurilish-arxitektura terminlarining, umuman olganda, matnlarning qanday turdagi korpuslarda aks ettirilishiga aniqlik kiritish ham tadqiqotimizning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda avvalo korpus turlariga e'tibor qaratish va ularni tavsifiy tahlil asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Korpuslarni tasniflash yoki tur va turkumlarga ajratish yuzasidan ham yakuniy to'xtamga kelinmagan.

Ammo quyida keltirib o‘tiladigan korpuslar eng faol va maqsadli tuziladigan korpus turlari hisoblanadi.

Umumiy korpus (general corpus). Korpus turlari ichida umumiy korpus bir qancha jihatlariga ko‘ra boshqa korpuslardan ustun turadi va unga o‘zak korpus degan ta‘rif ham beriladi. Sinklearning fikricha, bu korpus turi har bir sohaga tegishli bo‘lgan materiallarni qamrab olmaydi. Unda asosan bir-biriga aloqador bo‘lgan hamda tilning lug‘at tarkibini aks ettiruvchi leksik birliklar aks ettiriladi. Bu xususiyat korpus materiallarining ham janr tabiatiga ko‘ra bir-biriga o‘xshash bo‘lishini ko‘rsatadi. Umumiy korpusga qo‘yiladigan asosiy talab tilning mavjud lingvistik xususiyatlari va holatini aks ettirish hisoblanadi. Umumiy korpusga kiritiladigan qurilish-arxitektura terminlari va bu sohaga oid matn ma‘lumotlari asosan chuqur ixtisoslashmagan, ko‘proq ijtimoiy kommunikatsiyaga oid materiallardan tashkil topadi.

Monitor korpus. Bu korpus doimiy asosda matnlarni skanerlash, filtrlash va ma‘lumotlar bazasi uchun ma‘lumotlarni ajratib olishda foydalaniladi, ammo materiallarni arxiv fayllarda saqlab qolmaydi. Monitor korpuslar boshqa korpuslardan farqli ravishda doimo bir xil o‘lchamda bo‘ladi. Bu yangi ma‘lumotlarning qabul qilinishi va eskilarining chiqarib tashlanishi evaziga ta‘minlanadi. Qurilish-arxitektura terminlarining matndan ajratib olinishi va razmetkalanishi uchun bu turdagi korpusdan foydalanish mumkin.

Maxsus maqsadli korpuslar. Bu turdagi korpuslar yuqorida tavsiflangan korpuslardan farqli ravishda ixtisoslashgan tilga ega bo‘ladi hamda sohaviy diskurs materiallaridan tashkil topadi. Bu tipdagi korpus muayyan tilning lingvistik xususiyatlarini aniqlash va umumiy xulosalar chiqarish uchun xos hisoblanmaydi. Ular asosan ma‘lumotlarni arxivlash, tabiiy tilni qayta ishlash orqali erishiladigan natijalar hamda ta‘limiy maqsadlarda foydalanish uchun xizmat qiladi. Jahon korpus lingvistikasida yaratilgan qurilish-arxitektura korpuslarining aksariyati aynan maxsus maqsadli korpuslar sirasiga kiradi. Ularning har biriga quyida batafsil to‘xtalamiz.

Bir tilli korpuslar. Bu korpus materiallari bitta til doirasida bo‘ladi. Dunyo tillarida yaratilgan milliy korpuslarni bir tilli korpuslar doirasiga kiritish mumkin. Tadqiqotimizda ushbu bobning ikkinchi faslida o‘zbek milliy korpusida qurilish-arxitektura terminlarining berilish masalalari batafsil o‘rganiladi.

Ikki yoki ko‘p tilli korpuslar. Bu tipdagi korpus materiallari ikki yoki undan ortiq tillardan tashkil topishi bilan xarakterlanadi va bir tilli korpuslarga qaraganda murakkab hamda mukammal hisoblanadi. O‘z navbatida, bu korpuslar ikki guruhga — qiyosiy va parallel korpuslarga bo‘linadi.

Qiyosiy korpus. Muayyan xususiyatlariga ko‘ra umumiylikka ega bo‘lgan va o‘zaro qiyoslash imkonini beruvchi bir necha tillardagi materiallar to‘plamidir.

Parallel korpus. Bu tipdagi korpuslarda bir tildagi korpus materiallarining ikkinchi yoki uchinchi tildagi tarjimai parallel ravishda beriladi. Aynan ikkinchi yoki uchinchi tildagi tarjima materiallarining mavjudligi parallel korpusni qiyosiy korpusdan farqlaydi. Qurilish-arxitektura terminlarining parallel korpusini yaratish ushbu soha terminlarining ikki yoki ko‘p tilli tarjima lug‘atlarini yaratishga hamda bu yo‘nalishdagi materiallarning mashina tarjimasini takomillashtirishga yordam beradi.

Diaxron korpuslar. Bu korpuslar tilning muayyan davrdagi xususiyatlarini ochib berish uchun yaratiladi va tillarning evolyutsiyasiga oid tadqiqotlarni olib borishda foydalaniladi.

BYU-OED diaxron korpusi haqida ma‘lumot.

BYU-OED (37 million words, Old English - Present-Day English)

This corpus is based on 37 million words in 2.2 million quotations in the Oxford English Dictionary. Some might wonder whether these quotations -- which form the entries for specifically-chosen words -- can form an accurate corpus. Let's see.

(Before starting, remember that -- due to the extreme variation in spelling in historical texts -- the corpus is only tagged and lemmatized at a relatively basic level. As mentioned above, however, it is possible for individual users to modify the lemmatization and tagging to suit their own purposes, via "customized lists".)

1. Do support (measured here by negation with one verb (*know*): *we know not / we do not (or don't) know*): **1,676 tokens**

Notice how nicely the data from these 1676 tokens show the steady rise from the 1500s to the 1900s. If the 2.2 million quotations in the corpus didn't really form a good corpus, would we see such a clear, sustained shift?

	Search string	1500s	1600s	1700s	1800s	1900s
A	[*pps*] [know] [not]	89	295	164	155	15
B	[*pps*] [do] [not] [know]	1	23	64	155	112
C	[*pps*] [don't] [doesn't] [didn't] [know]	0	7	31	166	399
	% (B+C) (i.e. pre-verbal <i>do</i>)	0.01	0.09	0.37	0.67	0.97

Sinxron korpuslar. Bu toifadagi korpuslar muayyan davr oraliqidagi tilni aks ettirishi bilan

xarakterlanadi. Braun korpusini sinxron korpuslar namunasi sifatida ko'rsatish mumkin. U 1961-yildan boshlab mavjud bo'lgan amerika ingliz tili matnlarini qamrab olgan hamda bir qator xususiyatlariga ko'ra umumiy korpuslarga o'xshab ketadi. Sinxron korpuslar ko'pincha tadqiqot maqsadida tuziladi. Bunga SOSA — *Corpus of Contemporary American English* korpusini misol qilish mumkin.

Ochiq korpuslar. Bu toifadagi korpuslar dinamik korpuslar ham deb yuritiladi va uzluksiz boyib boradi. Ushbu korpuslar asosan korpusga asoslangan lug'atlarni shakllantirish uchun ishlatiladi. Bu korpusning afzalliklaridan biri shundaki, korpus doimiy ravishda yasalish yoki o'zlashtirish yo'li bilan paydo bo'ladigan yangi leksema va terminlar uchun ochiq bo'ladi. Shuningdek, ochiq korpuslar eng yangi ma'lumotlarni aks ettirishi bilan ham muhim sanaladi.

Yopiq korpuslar. Bu turdagi korpuslarga mablag' yetishmasligi, vaqt chegarasi yoki boshqa sabablarga ko'ra tugallangan yoki tugallanmagan holatda yopib qo'yilgan korpuslar kiradi. Bunga Britaniya milliy korpusini misol keltirish mumkin. Ularda odatda tildagi yangi o'zgarishlar asosida yangilanish amalga oshirilmaydi va korpusga kiritilgan materiallarning barqaror holatda saqlanishi ta'minlanadi.

Qurilish-arxitektura terminlari muayyan tildagi leksik qatlarning tarkibiy qismi hamda sohaviy terminologiyaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida yuqorida keltirib o'tilgan barcha korpuslarda ham aks ettirilishi mumkin. Ammo qurilish-arxitektura terminlarini aks ettirishdan ko'zlangan maqsaddan kelib chiqsak, quyidagi korpuslarni tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qurilish-arxitektura sohaviy korpuslari. Bu korpus ushbu soha mutaxassislari, talabalar, tilshunoslar hamda tadqiqotchilar tomonidan ta'limiy va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Dunyoning yetakchi tillaridan ba'zilarida bunday korpuslar yaratilgan va boshqa bir qator tillarda ham dastlabki harakatlar boshlangan. Xususan, "Zamonaviy ingliz tili arxitektura diskursi korpusi" (*CADES — Corpus of Architecture Discourse in Contemporary English*) shular jumlasidandir.

Ushbu korpus soha terminologiyasini o'rganish maqsadida tuzilgan bo'lib, zamonaviy ingliz tilidagi turli manbalardan to'plangan taxminan 500 000 ta arxitektura terminlarini o'z ichiga oladi. CADES korpusi monolingval, ya'ni bir tilli korpus hisoblanadi hamda Janubiy Amerika, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Kanada va Avstraliya nashrlarida chop etilgan sohaviy matnlarni qamrab oladi. Bu matnlarning barchasi 2007–2008-yillar oralig'iga tegishli ekanligini inobatga olsak, ushbu korpusni sinxron korpus sifatida qabul qilish mumkin.

Mazkur korpus tuzilishiga ko'ra maxsus maqsadli korpus hisoblanib, unda arxitektura va uning ichki tarmoqlariga oid leksik birliklar aks ettirilgan. Jumladan, umumiy korpus arxitektura terminologiyasidan tashkil topgan bo'lib, ichki kontent konstruktsiya, urbanizatsiya, landshaft arxitekturasi, qurilish materiallari, yashil arxitektura, ichki dizayn va boshqa yo'nalishlarga oid terminlardan iboratdir.

CADES korpusining tuzilishi va dizayn prinsiplari, ya'ni ma'lumotlarning hajmi, mavzusi, manbasi, ilmiylik darajasi, adabiy tilga mosligi, onlayn shaklda ekanligi, materiallarning autentikligi, kirishning bepulligi hamda doimiy yangilanib borish imkoniyatining mavjudligi ushbu korpusning foydalanish doirasini yanada kengaytiradi. Korpusga birlashtirilgan dasturiy funksiyalar (toollar) ingliz tilidagi arxitektura-qurilish sohasiga oid til birliklarining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish, tavsiflash va tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Qurilish-arxitektura sohasiga oid korpuslardan yana biri bu "Arxitekturaga oid tarjima korpusi" — ARCHINT (*Architecture in Interpreting Corpus*) hisoblanadi.

This was followed by a description of the design-thinking process. The closing evaluation brought in final comments on the building or buildings reviewed and, at times, echoed ideas that were introduced at an earlier moment. The structure of the speeches was similar to the genre known as Architectural Review (Caballero, 2006).

Mode of delivery. Five speeches were read from a written script, four were delivered in a mixture of read and impromptu, and two were delivered impromptu.

	English subcorpus	Spanish subcorpus
Total hours	9 h 39 min 46 s	09 h 39 min 46 s
Total N. Words	64,765 words	64,356 words
Types	1,213	1,180 types
Tokens	36,568	32,986 tokens
TTR value	3.36%	3.61%
STTR value	29.46%	32.29%
Average speech length	5,887 words	5,850 words
Average speech duration	52 min	52 min
Average speech speed	112 wpm	111 wpm

Table 1. English and Spanish subcorpus description

Ushbu korpus ikki tilli parallel korpus bo'lib, konferentsiyalarda ingliz tilida taqdim qilingan ma'ruzalarining videoyozuvlari asosida shakllantirilgan. Bunda videolarning ispan tilidagi ketma-ket tarjimai hamda tarjimaning transkripti (yozma matni) berilgan. Ushbu korpus materiallari autentikligi, kompyuter tushuna oladigan formatga o'tkazilganligi, taxminan 20 soatlik videoyozuvdan iborat ekanligi va o'rtacha 129 000 so'zni qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu videoyozuvlar 1999–2007-yillar davomida har ikki yilda bir marta Ispaniyada o'tkazilgan qurilish-arxitektura konferentsiyalarida yozib olingan va to'plangan. Ushbu ovozli materiallarda aks ettirilgan diskurs namunalari soha mutaxassislari, tadqiqotchilar hamda ushbu yo'nalishda faoliyat olib boruvchi xodimlar nutqiga tegishlidir. Mazkur korpus fan nomzodi dissertatsiyasi doirasida yaratilgan ilmiy tadqiqot mahsuli hisoblanadi.

Yuqoridagi korpuslarda ham kuzatilgan va umuman barcha korpus yaratish jarayonlarida hisobga olinishi lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud. Bu masalalar qurilish-arxitektura korpuslariga ham birdek taalluqlidir. Korpus tilshunosligida bir yoki bir necha tillar doirasidagi nutq faoliyati hamda korpusdagi keyingi tadqiqotlarni ixchamlashtirish uchun zarur bo'lgan korpus materiallarini kodlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi xususiyatlar korpus yaratishda muhim jarayonlar hisoblanadi:

- to'plangan materiallarni mashina saqlovchilariga (kompyuter xotirasiga) joylashtirish;
- elektron qidiruvga (morfologik va sintaktik qidiruvlarga) imkon beradigan maxsus belgilash tizimini yaratish;
- yakuniy o'lchov birligiga ega bo'lish va reprezentativlikni ta'minlash, ya'ni tildagi turli janrlarning asl holatda to'liq aks ettirilishi.

Bunday ma'lumotlarning mavjudligi korpusning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, uni elektron shakldagi oddiy matnlar majmuasidan, xususan, odatiy internet matnlaridan ajratib turadi. Ma'lumotlarning mukammalligi va aniqligi, shuningdek, turli xil tilga oid fakt hamda hodisalarning batafsil qamrab olinishi korpusning ko'p qirrali lingvistik manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur tadqiqotda jahon korpus lingvistikasining rivojlanishi hamda qurilish-arxitektura terminlarining turli tipdagi korpuslarda ifodalanish masalalari tahlil qilindi. Korpuslarning asosiy xususiyatlari — autentiklik, elektron format, hajm va reprezentativlik — ularning oddiy matn bazalaridan farqini belgilab berishi aniqlandi. Ayniqsa, sohaviy korpuslarning terminologik birliklarni tizimli o'rganish va standartlashtirishda muhim ilmiy-amaliy vosita ekanligi asoslab berildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qurilish-arxitektura terminologiyasini eng samarali tarzda maxsus maqsadli, parallel va sinxron korpuslar orqali ifodalash mumkin. Bu esa terminlarning semantik aniqligi, tarjima ekvivalentlari va kontekstual qo'llanishini chuqur o'rganishga imkon yaratadi. Shuningdek, monitor va ochiq korpuslar yangi terminlarning doimiy ravishda yangilanib borishini ta'minlab, zamonaviy til taraqqiyotiga moslashuvchanlik beradi.

Tadqiqot natijalari korpus lingvistikasida arxitektura terminlarini tizimlashtirish, ularni avtomatik qayta ishlash hamda sun'iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiya qilish zarurligini ko'rsatdi. Kelajakda multimodal va ko'p tilli korpuslarni rivojlantirish ushbu sohada yanada keng ilmiy imkoniyatlar yaratadi. Umuman olganda, korpuslar nafaqat tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, terminografiya va ta'lim sohalarida ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi hamda qurilish-arxitektura terminologiyasini zamonaviy talablarga mos holda o'rganishda asosiy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Carnbrook G. *Language and Computers*. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 1998. — P. 170.
2. Bowker L., Pearson J. *Working with Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora*. — London; New York: Routledge, 2002.
3. Burnard L. *Users' Reference Guide to the British National Corpus*. — Oxford: Oxford University Computing Services, 1995.
4. Burnard L., Dodd T. *Xara: an XML Aware Tool for Corpus Searching [Elektron resurs]*. — 2002. — URL: [Oxford University Computing Services](http://www.oxfordjournals.org/doi/full/10.1093/acprof:oso/9780199200000.ch04)
5. Carletta J., McKelvie D., Isard A. *Supporting Linguistic Annotation Using XML and Stylesheets // Corpus Linguistics: Readings in a Widening Discipline / eds. G. Sampson and D. McCarthy*. — 2002.
6. Carletta J., Kilgour J., O'Donnell T., Evert S., Voormann H. *The NITE Object Model Library for Handling Structured Linguistic Annotation on Multimodal Data Sets // Proceedings of the EACL Workshop on Language Technology and the Semantic Web*. — Budapest, 2002.
7. Carlson L., Marcu D., Okurowski M.E. *Building a Discourse-Tagged Corpus in the Framework of Rhetorical Structure Theory // Current and New Directions in Discourse and Dialogue / eds. Jan van Kuppevelt, Ronnie Smith*. — Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 2002.